

Olmaliq sh.

01.02.2022 yil

«OLMALIQ HAYOTI» gazetasi tahririyati (bundan buyon matnda «tahririyat» deb ataluvchi) nomidan bosh muharrir **Ro'zieva Difuza** bir tomondan, ikkinchi tomondan Xalq ta'limi bo'limi (bundan buyon matnda «obunachi» deb ataluvchi) nomidan rahbar **Z.Xudoyberganov** quyidagilar to'g'risida ushbu shartnomani tuzdilar.

I. SHartnoma mazmuni.

1.1. «Olmaliq hayoti» gazetasi haftada bir marta chop etiluvchi nashr bo'lib, yil davomida 271 son miqdorida chop etiladi va «obunachi»ga obuna to'lovi asosida etkazib beriladi.

II. Mahsulot bahosi va soni.

- 2.1. Gazetaning 6 oylik obuna bahosi **109200** (bir yuz to'qqiz ming ikki yuz) so'mni tashkil qiladi.
 2.2. Ushbu shartnomaga muvofiq, tahririyat «obunachi»ga 2022 yillarda gazetaning sonlarini 271 to'plam (komplekt)da etkazib beradi.
 2.3. Jami **29593200** so'mni tashkil etadi.

III. Gazeta sonlarini etkazib berish muddati va tartibi.

- 3.1. Tahririyat «obunachi»ga gazeta sonlarini bosmaxonada uning to'liq adadi chop qilinganidan so'ng uzog'i bilan 3 kun ichida etkazib beradi.
 3.2. Gazeta sonlarini etkazib berish bilan bog'liq barcha xarajatlar «tahririyat» hisobidan qoplanadi.

IV. To'lov tartibi.

4.1. «Obunachi» ushbu shartnoma bo'yicha obuna uchun to'lov summasini ushbu shartnoma imzolangan (davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan tashkilotlar g'aznachilik boshqarmasida tasdiqlangan) kundan boshlab o'n bank ish kuni ichida tahririyat hisob raqamiga pul o'tkazish yoki terminal orqali to'liq (100 foiz) oldindan amalga oshiradi.

V. Taraflarning majburiyatlari va javobgarligi.

- 5.1. Tahririyat «obunachi»ni ushbu shartnomada belgilangan muddat va miqdorda gazeta sonlari bilan ta'minlaydi.
 5.2. «Obunachi» ushbu shartnomaning belgilangan qismida va to'lov topshiriqnomasida o'zining to'liq nomi va manzilini, pochta indeksi, STIR, OKONX, bank hisob raqami, bank kodini ko'rsatishi shart.
 5.3. SHartnomaning 5.2-bandida ko'rsatilgan shartlar obuna shartnomasi hamda to'lov topshiriqnomasida (yoxud pochta kvitansiyasida) aniq va ravshan ko'rsatilmagan holda taqdim etilsa, tahririyat gazetani ushbu kamchiliklar «obunachi» tomonidan bartaraf etilmaguncha etkazib berishni kafolatlamaydi.
 5.4. SHartnomaning amal qilish muddati 2022 yilning yanvardan 2022 yil 31 dekabrighacha.

VI. Nizolarni hal etish.

6.1. SHartnomaga amal qilishda tomonlar o'rtasida yuzaga kelgan nizolar kelishuv orqali hal bo'lmasa, O'zbekiston Respublikasi Qonunlarining belgilangan tartibida hal etiladi.

VII. Tomonlarning huquqiy manzillari.

«Olmaliq hayoti» gazetasi tahririyati DM

Manzil: Olmaliq shahri, A. Temur ko'chasi, 22-uy

INDEKS: 110111 Tel: 61 5 31-66

H/r: 20210000100136898001

BANK: ATIB «Ipoteka-bank» Olmaliq

filial MFQ: 00059

STIR: 20060333 OKONX 87100

Olmaliq shahar XTB (maktablar)

Manzil: Mustaqillik 23 uy

g'az/h-r: 23402000300100001010

Bank: Markaziy Bank filiali

Bank kodi: 00014

STIR: 20060333

Sh/h-r 40010000100136898001

Z.Xudoyberganov




**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY**

XULOSA

1. Loyihaning turi: Shartnoma
2. Loyihaning nomi: Shartnoma
3. Loyihaning mazmuni: Olmaliq shahar Xalq ta'limi bo'limi va "Olmaliq hayoti" gazetasi tahririyati o'rtasida yetkazib berish bo'yicha shartnoma tuzish to'g'risida.
4. Loyiha haqida ma'lumot.

Ushbu shartnoma loyihasi Olmaliq shahar Xalq ta'limi bo'limi tomonidan 2022-yil 19-yanvar kuni Olmaliq shahar yuridik xizmat ko'rsatish markaziga taqdim etilgan. Shartnoma loyihasi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, O'zbekiston Respublikasi "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonuni talablariga asosan ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Bosh yuriskonsult



M.Ashurova